BO‘LAJAK PROFESSIONAL TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI.

Axadova Gulnoza Said qizi
Jizzax Politexnika instituti tayanch doktoranti
axadovagulnoza7257@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashning shakl, metod va vositalari haqida fikr yuritilgan. O‘qitishning samarali usul va vositalaridan foydalanish, ularni to‘g‘ri tanlay olish hamda ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillarni ham inobatga olgan holda ta’lim berish va kasbiy kompetentligini rivojlantirish o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: metod, ta’lim metodi, ta’lim usuli, og‘zaki metodlar, ko‘rsatmali metodlar, amaliy metodlar, model, modellashtirish

Аннотация

В данной статье рассматриваются формы, методы и средства подготовки будущих учителей профессионального образования. Изучалось использование эффективных методов и средств обучения, умение правильно их выбирать, а также учет других факторов, влияющих на качество образования, подготовки и развития профессиональной компетентности.

Ключевые слова: метод, метод обучения, устные методы, методы обучения, практические методы, модель, моделирование

Annotation

This article discusses the form, methods and means of training future professional education teachers. The use of effective teaching methods and tools, the ability to choose them correctly, and taking into account other factors affecting the quality of education, training and development of professional competence were studied

Key words: method, educational method, oral methods, instructional methods, practical methods, model, modeling

Mamlakatimizda jahon talablari darajasida ta’lim-tarbiya olishi va kasb-hunar egallash, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar mavjud. Yangi sharoitlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etib kelmoqda. Bu haqida Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta’lim-tarbiya har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilmoqda”[1].

“O’qituvchi o‘z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog‘i, mustaqil ishlashini o‘rganmog‘i lozim” – degan edi A. Jomiy. Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. O’qituvchining kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar, ularning ulug‘lanishi Sharq mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniylarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari respublikamiz va chet ellik mutaxassislar tomonidan bir qator adabiyotlarda yoritilgan. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish, o‘z-o‘zini boshqarish asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlikni tashxislash masalalari M.A.Abdullajonova, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, X.A.Abduraxmanova, S.V.Safonovalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. O’qituvchining kasbiy mahoratini tadqiq qilgan pedagog olimlar H.Abdukarimov, N.Azizxo‘jayeva, A.Aliyev, Yu.A.Axrorov, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo‘rayev, B.R.Jo‘rayeva, J.G’. Yo‘ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, L.M.Mitina, A.G.Morozov, U.N.Nishonaliyev, M.Ochilov, B.Raximov, N.Saidahmedov, V.A.Slastyonin, O’.Tolipov, A.R.Xodjaboyev, A.A.Xoliqov, N.Shodiyev, O.Haydarova, A.A.Hamidov, F.R.Yuzlikayevlarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, talabalarning dunyoqarashlari, kasbiy va muloqot madaniyatini rivojlantirish yo‘llari va usullari, shuningdek, o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyalash va tayyorlash muammolari tadqiq etilgan.

Ma‘lumki, ta’lim metodlari bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yosh pedagoglar tomonidan bu jarayon davom ettirilmoqda. Bildirilgan fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, O‘qitishda ta’limiy metodlarning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta’riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta’kidlash mumkin. Ko‘pchilik mualliflar ta’lim metodini o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir. Shu qoidani boshlang‘ich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada batafsil ko‘rib chiqish va uning ilmiy ta’rifini keltirib o‘tamiz.

Metod so‘zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli deganidir. Metod - eng umumiy ma’noda - maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda ham o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o‘quvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyati uyg‘unlashadi.

Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig’indisi tushuniladi. Didaktikada, shuningdek, ta’lim usullari atamasi ham keng qo‘llanadi. Ta’lim usuli - ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o‘zaro bir-biriga bog‘langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o‘qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Ta’lim usuli - o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi[2].

Mamlakatimizning ertangi kuni dunyoqarashi zamonaviy, salohiyati yuqori o‘qituvchi-murabbiylarga ko‘p jihatdan bog‘liqligini hammamiz birdek tushunib turibmiz. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo‘llanilayotgan metodlar va usullar samaradorligi ham ahamiyatlidir. Ta’lim nazariyasida o‘qitish (ta’lim metodlari) muhim rol

o‘ynaydi. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatlarining usuli ekanligini bilamiz. Ta’lim metodlari o‘qitish va o‘qishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish yo‘llari hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy tomondan yo’naltirish yo‘llarini bildiradi va ko‘maklashadi. Ta’lim metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish hamda olib borish lozimligini va shu jarayonda o‘quvchilar qanday ish harakatlarni bajarishlari shartligini ko‘rsatib beradi. Pedagogik ensiklopediyada izohlanishicha, ta’lim metodi o‘qituvchi o‘quvchining ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga qaratilgan o‘zaro aloqador, ma’lum ketma-ketlikdagi faoliyati tizimidir.

Pedagogikada o‘qitish metodlarini tasniflashga yagona yondoshish hozirda mavjud emas. Didaktikada ta’lim metodlarini quydagicha farqlashlar keng tarqalgan: bilimlar manbai bo‘yicha S.O.Lordkipanidze, YE.YA.Golant, didaktik maqsadlar bo‘yicha B.P.Yesip, bilish faoliyatining saviyasi bo‘yicha I.YA. Lerner, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov. Metodlarning binar sxemalari va ularni uch o‘lchovli farqlash ham mavjud.[3] Ana shu tasniflashlarning har qaysisida afzalliklar hamda kamchiliklar mavjuddir. Ular adabiyotlarda ham keraklicha tahlil qilingan. O‘qitish metodlarini bilish manbalari bo‘yicha tasniflash ancha sodda bo‘lib, ular maktab amaliyotida keng qo‘llaniladi. Bu belgi yuzasidan metodlar quyidagi uch guruhga ajratiladi: 1. Og‘zaki metodlar (bilimlarni so‘z orqali ifodalash, suhbat, darslik, ma’lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash). 2. Ko‘rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar). 3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar). Bular ma’lum darajada shartlidir, chunki bu metodlarning hammasi o‘zaro birbiri bilan bog‘liq hisoblanib, ularni doim ham aniq chegaralash mumkin emas. Har bir ta’lim metodining o‘z vazifalari mavjud. S. G. Shapovalenko metodlarning to‘rt jihatini ko‘rib chiqadi: mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi. Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi (Svetlovskaya , Suvorova, Lvov, Mavlonova va boshqalar)[4].

O’qituvchi shaxsini kasbiy tarbiyalashning psixologik va psixofiziologik jihatlari A.A.Bodalev, Ye.M.Ivanova, E.G’oziyev, M.G.Davletshin va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. O’qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi V.Adolf, I.Zimnyaya, A.Karabayeva, N.Kuzmina, N.Muslimov, Sh.Sharipov kabi qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, kompetentlik va kompetent yondashuvning mazmuni va ta’riflari, shuningdek, zamonaviy o‘qituvchining kasbiy sifatlari keng tadqiq etilgan. Lekin oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini tashxis qilish tizimi, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalarining kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. O’qituvchining kasbiy tavsifnomasini tuzish, unga bo‘lgan talablarni aniqlash, shaxsni shakllantirishda tarbiyaning maqsad va vazifalari, qoidalari, ta’lim va tarbiya metodlari, uning qadimiy ildizlari (genezisi)ni aniqlashda Sharqning taniqli qomusiy olim va mutafakkirlarining hissalari kattadir. Buyuk Sharq mutafakkirlari AlXorazmiy, Al-Kindiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Sa’diy Sheroziy, Mirzo Ulug‘bek, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar birinchilardan bo‘lib ta’lim metodlarini ilmiy asoslab berishdi. Anglash faoliyatini jadallashtirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, bilimlarning tizimliligi, ketma-ketligi, mantiqiyligi, induksiya, tajriba, taqqoslash, kuzatish metodlari shular jumlasidandir. Pedagogika tarixiga oid tadqiqotlarda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlarning taraqqiyoti quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganilgan:

1) Eng qadimgi davrlardan 1917 yilgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti;

2) 1917-1990 yillarda pedagogik fikrlar rivojlanishi;

3) Mustaqilllik yillarida O’zbekistonda ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasidagi tadqiqotlar. Bu davrlashtirishni bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlash davrlari genezisi sifatida ham qabul qilish o‘rinlidir. Bu davrlar uchun o‘qitishning quyidagi usullari xarakterlidir: 1) Savtiya usuli; 2) Jamoa usuli; 3) Jadid usuli; 4)Sinf-dars usuli; 5) Loyihalashtirishga asoslangan, natijalarga kafolatli erishishga yo‘naltirilgan texnologik yondashuv[5]. Mazkur ta’lim texnologiyalari bir-biridan progressivligi bilan farq qilib, bir-biriga nisbatan yangi, innovatsion

texnologiya hisoblanadi, xususan, savtiya usuliga nisbatan jamoa usuli, jamoa usuliga nisbatan jadid usuli innovatsion va h.k.

Ayni paytda, har bir o‘qituvchi faoliyati davomida o‘zining kasbiy qiyofasini takomillashtirib borishini unutib bo‘lmaydi. Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda professional ta’lim o‘qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo‘lishi kerak. Shu jihatdan bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilari qiyofasida pedagogik, psixologik va estetik malakalilik bo‘rtib turishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilari pedagogik vazifani qo‘ya olishi, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;

- imkon qadar har bir o‘quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo‘lishi shart;

- o‘quv materiallari bilan ishlash ko‘nikmasini egallash bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisini kasbiy tayyorlash. O’zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;

- bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

- ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish;

-pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini «hayot davomida o‘qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog‘ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sohasida davlatxususiy sheriklikni rivojlantirish;

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish[6]. Pedagogik olimlarning fikricha, bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak: 1 o‘quv materiallarini tayyorolash va taqdim etish; 2 o‘quvchilarni bilim va tarbiya olishga qiziqtira olishi; 3 o‘quvchilar shaxsida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf eta olishi; 4 muntazam ravishda o‘quvchilarni kuzatib borishi. Mazkur yondashuv asosida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modellashtirish masalasiga ahamiyat berish dolzarb bo‘lib turibdi. Unga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim jarayoni o‘ziga xos model ko‘rinishiga ega bo‘lishi kerak. Chungi modellashtirish to‘rt jihatga ega bo‘ladi:

-model bu o‘quv materiallarini tizimli taqdim etish;

- model muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etib borish;

- model ta’lim oluvchini hamisha ob’ekt sifatida bilish;

- model yangi ma’lumotlarni o‘z vaqtida o‘quv jarayoniga kiritib borish. Shu jihatdan bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash ishlarini modellashtirib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarga o'rganayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topib, mustaqil bajarib-o'rganib, xulosa chiqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Bunday pedagogik jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida bilim olishiga texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor bermog'i lozim. Mazkur mulohazalar albatta bo'lajak professional ta’lim o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy yondashgan holda o'quvchilarni tayyorlashga o'rgatishda o'z samarasini beradi. Xususan, fanlarini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash orqali bajarish kabi o'z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish muhim hisoblanadi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha o'quv fani dasturidagi mavzularni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, umumlashtirish va xulosalashga o'rgatish, o'qituvchining til materialidan foydalanishga qiziqish uyg'otish, unda amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirish hozirgi kun talabi sifatida o'rganilmoqda

Pedagogika fanida o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o‘quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g‘oyalari, ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o‘rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o‘ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o‘ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo‘yiluvchi talablarning o‘zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt;
- o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o‘quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta’minlanganlik darajasi, jihozlar, ko‘rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o‘qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;
- o‘quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o‘rnatilganligi. O‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi. Ta’lim metodlari pedagogning imkoniyatlarini kengaytiradi, vaqtini tejaydi. Mashg‘ulot jarayonlarida professor-o‘qituvchiga darsni qulay boshqarish imkonini beradi, unga faollik kasb etish bilan bir qatorda ta’limning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Ta’lim motivlari kuchi o‘quvchining bilim olish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga bo‘lgan intilishilari uning davomiyligi bilan belgilanadi. O‘qitish jarayoni pedagog, ta’lim oluvchi va o‘qitish vositalarining o‘zoro ta’siridan iborat bo‘lib, hozirgi zamon axborot texnologiyalari imkoiyatlari o‘qitish vositalariga o‘qituvchi va ta’lim oluvchi vazifalarining bir qismini yuklash imkonini beradi. Ta’lim metodlari darslarning qulayligini ta’minlaydi. Unda o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi doimiy ketma-ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak holarda tuzatishlar kiritib borishga imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-sentabrdagi 1-Oktabr ‘‘Ustoz va murabbiylar’’ kuni bayrami tabrigidan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-sentabrdagi 1-Oktabr ‘‘Ustoz va murabbiylar’’ kuni bayrami tabrigidan.

2. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 92- 93betlar

3. O’qitishda ta’limiy metodlarni muvofiqlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-1076-1086 Soat Oybek Erkin o‘g‘li Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7

4. Mavlonova R. va boshq., Pedagogika, T: O‘qituvchi 2001y., 469 b

5. Bo`lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy pedagogik etikasini va faoliyatini takomillashtirish Mamatkulova Nilufar Boyzoq qizi "Экономика и социум" №11(114) 2023 www.iupr.ru

6. O’roqov Sh. Bo‘lajak kollej o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni Shakllantirishning ilmiy-metodik jihatlari//SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand: 2015 4-son. –B.132-135. (13.00.00; №6).

7. Feruz, R., & Asilbek, A. (2023). O’QUVCHILARNING IJODIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 217-221.

8. Nadirova-Kazan, H. (2023, November). EXPLORING THE CONTENT OF MEDIA LITERACY: A COMPREHENSIVE REVIEW. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 107-110).